

## AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA KICHIK TADBIRKORLIKNING O‘RNI

*Urunbayeva Yulduz Pirnazarovna - PhD dotsent*

*Qudratova Zarnigor Mahmudovna – talaba*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

**Annotatsiya:** maqolada kichik tadbirkorlik va aholi turmush darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kichik tadbirkorlik, aholi turmush darajasi, ijtimoiy himoya, bandlik, ishsizlik, innovatsion iqtisodiyot, bozor kon’yukturasi

**Аннотация:** в статье описывается взаимосвязь между малым бизнесом и уровнем жизни.

**Ключевые слова:** малое предпринимательство, уровень жизни, социальное обеспечение, занятость, безработица, инновационная экономика, рыночные условия.

**Annotation:** The article describes the relationship between small business and living standards.

**Keywords:** small business, living standards, social security, employment, unemployment, innovative economy, market conditions.

Kichik tadbirkorlik uzoq davrlar mobaynida inson xo‘jalik faoliyati va uning ijtimoiy hayotining tarkibiy qismi hisoblangan. Qadim zamonlardan kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-jamoa instituti sifatida, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar hamda foydali faoliyat sifatida mavjudligi – bularning barchasi birgalikda insoniyat jamiyati va turmushining zaruriy sharti hisoblanib kelingan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, aynan kichik tadbirkorlik jamiyatning rivojlanish darajasini nafaqat uning ishlab chiqarish kuchlari nuqtayi nazaridan, balki ma’naviy va ma’rifiy holatini inobatga olgan holda egalladi, desak, xato bo‘lmaydi.

Dunyo mamlakatlarining ilg‘or tajribasi shundan dalolat beradiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat ijtimoiy taraqqiyotiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatib, millat iqtisodiyotining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy taraqqiyotidagi alohida, o‘ziga ahamiyati shundan iboratki, u aholi daromadlarining shakllanishida, mehnatga layoqatli kishilarni ish bilan ta’minlashda, qashshoqlik va nochorlikni bartaraf etishda, o‘rta hol aholi qatlami saflarini kengaytirishda, haqiqiy ishbilarmonlarni ro‘yobga chiqarish muammosini hal etishda aholining turli tuman tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan talablarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi. U insonning yaxshi va farovon turmush kechirishiga bo‘lgan tabiiy intilishlari bilan uning o‘zida mujassamlashgan potensial

imkoniyatlari va salohiyati o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni ta‘minlash asosida barcha sotsial guruxlarni qanoatlantiradigan ijtimoiy muhit tug‘diradi, shaxs, davlat va jamiyat iqtisodiy manfaatlarini uyg‘unlashtiradi va, shu tariqa, jamiyatda ijtimoiy adolat va siyosiy barqarorlik o‘rnatishga ko‘maklashadi. Uning mamlakat iqtisodiy yuksalishidagi ahamiyati esa yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi va o‘sish sur‘atlarining jadallashuvida (mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarda), bozorda raqobat muhitini kuchaytirishda, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini shakllantirishda, beqaror bozor tizimining moslashuvchanligini oshirishda, ilmiy-texnika taraqqiyotini yangi marralarga olib chiqishda, yirik korxonalariga kerakli mahsulot va xizmatlarni yetkazib berish orqali ularning uzluksiz ishlashini ta‘minlashda, yangi ish o‘rinlarini yaratish, resuslardan unumli foydalanish, davlat budjeti daromadlarini ko‘paytirish kabilarda o‘z ifodasini topadi.

Mamlakatning postindustrial jamiyat sari yuksalib borishi milliy iqtisodiyotda o‘ziga xos tarkibiy o‘zgarishlarni taqozo etadi. Ushbu jarayonlar ayniqsa qishloq xo‘jaligida muammoli va og‘ir kechdi. Chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar ham xuddi boshqa soha va tarmoq tadbirkorlari singari keskin raqobat muhitida tabiiy ravishda resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ortiqcha sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymaslikka majbur. Qishloq joylarda iqtisodiy islohotlar natijasi bo‘lgan bunday o‘zgarishlar ushbu tarmoqda rejali, ma‘muriy-buyruqbozlik tizim davrida ortiqcha band bo‘lgan mehnat resurslarining bir qismini qisqartirish, ya‘ni ularni ishdan bo‘shatish muammolarini keltirib chiqardi. Bu jarayon esa, o‘z navbatida, qishloq aholisini ish bilan ta‘minlash muammolarini keskinlashtirdi. Real voqelikda yuzaga kelgan bunday murakkab va dolzarb muammoni hal etishning asosiy yo‘li – kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday mas‘uliyatli vazifani ushbu sektorgina o‘z zimmasiga oladi.

Bundan tashqari, kichik tadbirkorlik subyektlari iste‘mol talabining o‘zgarishlariga hammadan tez moslashadi, bozor kon‘yukturasi va vaziyatning tebranishlariga muvofiq tarzda o‘z faoliyati yo‘nalishini tez va nisbatan asoratsiz o‘zgartira oladi. Kichik tadbirkorlikning o‘ziga xos ustunliklaridan yana biri shundaki, u o‘z faoliyatini tashkil qilish uchun kamroq resurs talab qiladi va bankrot bo‘lgan holda jamiyat uchun talofotli iqtisodiy oqibatlariga olib kelmaydi. Kichik korxonalarda hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarida faoliyat olib borish uchun ishchi va xizmatchilardan juda yuqori malaka va katta tajriba talab qilinmaydi. Kichik va xususiy tadbirkorlik tarmoqlararo va mintaqalararo raqobatni kuchaytirish asosida ishchi kuchini oqilona joylashtirish va mintaqaviy tafovutlarni yumshatish, mamlakatda mulkdorlar qatlamini yaratish, mamlakat eksport salohiyatini ko‘tarish muammolarini hal etishda juda katta ijobiy rol o‘ynaydi. Bir qator manbalarda kichik

va xususiy tadbirkorlikning aynan qishloq joylarida unumli va mohirona foydalanish mumkin bo‘lgan bir qator o‘ziga xos ustunliklari borligi asoslab berilgan.

Biz ham kichik va xususiy tadbirkorlik sohasining bozor kon’yukturasi o‘zgaruvchan talablariga hamda vaqti-vaqti bilan iqtisodiyotda bo‘lib turadigan iqtisodiy inqirozlarga tez moslasha olishi, qolaversa mamlakatning kelajagi, uning jahon iqtisodiy integratsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rni, mamlakatda ishlab chiqarilgan tavarlar va xizmatlarning dunyo bozoridagi raqobatbardoshligi, aholining turmush farovonligi ko‘p jihatdan kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatining holati hamda rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liqligiga alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

1. Milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash makroiqtisodiy siyosat kontekstida kichik va xususiy tadbirkorlik korxonalar ishlab chiqarishni tor sohalarda bo‘yicha ixtisoslashishni chuqurlashtirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish hajmi kichik va moliyaviy mustahkamlik darajasi yuqori bo‘lmaganligi sababli o‘z iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga bo‘lgan tabiiy intilish kichik va xususiy tadbirkorlarni keskin raqobatga undaydi, barcha mavjud imkoniyatlardan to‘la va unumli foydalanishni taqazo etadi. O‘zining bozordagi mavqeini yo‘qotmaslik va raqobat kurashida mag‘lubiyatga uchramaslik uchun tovarlar va xizmatlar turlarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish, yangi mahsulot ishlab chiqarishni o‘zlashtirish, yangi bozorlar izlab topish, fan va texnika sohalari yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy qilishga intiladilar. Bunday strategiyani amalga oshirish uchun katta mablag‘ va kuchlar talab qilinmaydi, muhimi buni qisqa bir muddatda, ishlab chiqarishni to‘xtatmay, asoratsiz amalga oshirish mumkin.

2. Kichik korxonalarda iste’molchi talablarining o‘zgarishi, buyurtmaga qarab o‘zining yangi mahsulot turini ishlab chiqarishni tezlik bilan yo‘lga qo‘yish imkoniyati paydo bo‘ladi. O‘zbekiston ichki bozori keyingi yillarda yangi tovar va xizmat turlari hisobidan to‘xtovsiz kengayib, boyib bormoqda. Shunga mos tarzda iste’molchilar talabining tarkibi tubdan o‘zgarimoqda, yangi tovar va xizmatlar turlariga talabning hajmi o‘sib bormoqda. Bunday o‘zgarishlarga yirik korxonalar, kompaniyalar bir tomondan tez moslasha olmaydilar. Ikkinchi tomondan katta moliyaviy resurslarga ega bo‘lgan bu toifadagi korxonalarda kichik hajmda mahsulot ishlab chiqarishga qiziqmaydilar. Bu og‘ir vazifani moliyaviy jihatdan imkoniyati ancha zaif bo‘lgan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari yaxshi uddalaydi.

3. Kichik korxonaning ishlab chiqarishni egiluvchan tarzda tashkil etish, bozor talablari va vaziyatiga muvofiq mahsulot o‘z vaqtida, kechiktirmasdan sotuvga chiqarish, marketing xizmatlaridan keng foydalanish imkoniyatlari yirik korxonalar nisbatan ko‘p. Ular (kichik korxonalar) aholini noan’anaviy qisqartirilgan ish vaqti asosida mehnatga jalb etishning qulay shakli bo‘lib maydonga chiqadi. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar, nisbatan ortiqcha bo‘lib turgan ishchi kuchini ijtimoiy ishlab

chiqarishga jalb etishning, ya'ni ishsizlikka qarshi kurash olib borishning o'ziga xos, samarali vositasi hisoblanadi.

4. Kichik korxonalar, xususiy tadbirkorlik subyektlari tadbirkorlikning o'ziga xos maktabi, aniqrog'i kelajakda yirik korxonalarda ishlash va uni boshqarishning sir-asrorlarini o'rganish, amalda tadbirkorlikning hayotiy saboqlaridan dars olish, tajriba orttirish vazifasini bajaradilar. Ayniqsa, fan va texnika taraqqiyoti sohasida faol ishlayotgan xo'jalik subyektlari ishchi-xodimlari, mutaxassislari uchun ijodiy ishlash hamda kelajakda bu imkoniyatlarni yuqori darajada avtomatlashgan yirik ishlab chiqarishga joriy etish uchun yaxshi baza yaratiladi. Ushbu sektor subyektlari har qanday shaxsda mujassamlangan tadbirkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarish, uni boyitishda muhim ahamiyatga ega.

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslarga talabchanligi kam. Chunki ushbu subyektlar faoliyati uchun zarur bo'lgan kichik hajmdagi bino va inshootlarni tez va qisqa muddatda nisbatan kam moliya resurslarini sarflab amalga oshirish, ko'p hollarda esa tayyor, biron ishlatilmay turgan bino va uskunalarni ijaraga olish hisobidan amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bundan tashqari, oborot mablag'larining aylanish tezligi ham yirik korxonalariga nisbatan ancha yuqori. Bu omillar asosiy va aylanma mablag'lar samaradorligini oshirish hamda dastlab avanslangan kapital sarmoyalarni nisbatan tez qoplash uchun real sharoit yaratib beradi. Natijada ushbu sektorda yaratiladigan har bir ish o'rnining nisbat qiymati sezilarli darajada arzonga tushadi. Yangi ish o'rinlariga ehtiyoji katta bo'lgan ayni bir paytda iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirilayotganligi sababli moliyaviy resurslar tanqisligi muammosi mavjud bo'lgan O'zbekiston uchun juda katta amaliy ahamiyatga ega.

6. Kichik tadbirkorlik mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan va aholi keng qatlamlari manfaatlarini o'zida aks ettiradigan bozor iqtisodiyotini shakllantirish strategiyasini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U bozor munosabatlari hukmronlik qilgan jamiyatda mulkchilik munosabatlarini mustahkamlash, o'rta qatlam saflarini kengaytirish muammolarini iqtisodiy metodlar bilan hal etishda muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlik kishilarda mulkni qadrlash, isrofgarchilik va ortiqcha, o'zini oqlamaydigan sarf-xarajatlarga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiy resurslardan unumli foydalanish madaniyatini shakllantiradi.

7. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi keng qatlamlarining, aniqrog'i tadbirkorlik harakat va intilishlarini ro'yobga chiqarishga sharoit tug'dirib beradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun katta jamg'arma yoki moliyaviy resurslar talab etilmaydi. Ozgina kredit (mikrokredit) ijaraga olingan bino yoki uskunalar bilan uni boshlab yuborish mumkin. Bunday imkoniyatning mavjudligi mulk bilan mehnat o'rtasidagi, mulkdorlar sinfi bilan aholi o'rtasidagi iqtisodiy ziddiyatlarni yumshatishga yordam beradi.

8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yirik korxonalarni butlovchi materiallar bilan ta'minlash, ularni ehtiyot qismlarini yetkazib berish yo'li bilan yirik ishlab chiqarishni rivojlantirishga amaliy yordam beradilar. Kichik tadbirkorlar yirik ishlab chiqaruvchilarni ikkinchi darajali, ya'ni yirik ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan katta samara bermaydigan ishlardan ozod etadilar. Buning evaziga yirik korxonalar faoliyati samaradorligi oshadi.

Umuman olganda kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbai, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasi hamdir. Mazkur soha har bir kishiga o'z iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon etish uchun zamin tug'diradi, shu tariqa tashabbuskor, omilkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga qodir insonlar toifasini shakllantirishga xizmat qiladi.

So'ngi yillar davomida O'zbekistonda kichik biznesga qaratilgan e'tibor tufayli yuzaga kelgan vaziyatda davlatimiz rahbariyati tomonidan olib borilgan islohotlar va strategik maqsadlarning amaliy ijrosi milliy iqtisodiyotimizni barqaror o'sishini ta'minlab, xalqimizning munosib hayot kechirishiga zamin yaratdi. Jahon banking keltirishicha, O'zbekiston 2017 yilda raqobatbardosh va inklyuziv bozor iqtisodiyotini barpo etish bo'yicha muhim islohotlar jarayonini boshladi. Asosiy islohotlar valyuta kursini liberallashtirish, import tariflarini pasaytirish, tanlangan tovar va xizmatlar narxlarini erkinlashtirish, monopoliyaga qarshi qo'mitani tashkil etishdan iborat bo'ldi. Aytish o'rinliki, ushbu dastlabki sa'y-harakatlar xususiy sektorni rivojlantirish, ko'proq va yaxshi ish o'rinlari yaratish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. So'nggi olti yilda O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan 2 mingga yaqin qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Buning natijasida:

- tadbirkorlik sohasida talab etiladigan 114 turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilindi;
- 33 turdagi litsenziya va ruxsatnoma o'rniga xabardor etish tartibi joriy etildi;
- soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi;
- soliq tekshiruvlari turi 13 tadan 3 taga qisqartirildi;
- qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga kamaytirildi;
- ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi;
- 3,5 ming turdagi tovarlar uchun import bojxona boji va 1,1 ming turdagi tovarlar uchun aksiz solig'i bekor qilindi;
- 3 mingdan ziyod turdagi tovarlar uchun import bojxona bojlari keskin kamaytirildi.

2022-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari tarkibida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 54,2 foizni, fermer xo'jaliklari 18,1 foizni, xususiy korxonalar 15,3 foizni, oilaviy korxonalar 9,4 foizni, dehqon xo'jaliklari 1,9 foizni, boshqa shakldagi subyektlar ulushi 1,1 foizni tashkil etgan.

2017-yilda tadbirkorlik subyektlari soni 283 mingdan ortiqni tashkil etgan. Tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash borasida so‘nggi 6 yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida bu ko‘rsatkich 2022-yil yakuniga kelib, 523 mingtadan ortib ketdi yoki 2017-yildagiga nisbatan 240 mingtaga yoki 1,8 marotaba ortgan. O‘zbekistonda 2022-yil yakunlari bo‘yicha har 1 000 kishiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlar soni o‘rtacha 15 nafarni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Toshkent shahrida 36,8 nafarni, Navoiy viloyatida 21,9 nafarni, Sirdaryo viloyatida 18,1 nafarni, Surxondaryo viloyatida 10,3 nafarni, Qashqadaryo viloyatida 10,6 nafarni, Namangan viloyatida 11,4 nafarni tashkil etgan. 2022-yil yakuniga kelib, kichik va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi 54,9 foizga, qurilishda 72,4 foizga va bandlik sohasida 74,4 foizga yetdi.

Ko‘rilgan chora-tadbirlar va muhim qarorlar qabul qilinishi natijasida o‘tgan so‘nggi bir yil davomida aholini bandligini oshirilishida kichik biznesning ahamiyati katta bo‘ldi desak yanglishmaymiz. Jumladan, kichik tadbirkorlar soni 40 ming taga ko‘paydi va ularning umumiy soni 490 ming tani tashkil qilayapti. O‘rta tadbirkorlar soni esa 2 ming taga oshib, hozirda ularning soni 10 ming taga yetdi. Yirik korxonalar soni ham o‘tgan qisqa davrda 400 taga ko‘paydi. Endilikda ularning umumiy soni 1500 ta bo‘ldi. Tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faolligi oshishi, soliq ma‘murchiligida yangi instrumentlarning joriy etilishi va xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish natijasida 2021 yilda soliq turlari bo‘yicha ham sezilarli ravishda o‘sish kuzatilib, 2020 yilga nisbatan foyda, qo‘shilgan qiymat solig‘i soliq tushumlari 1,3 baravarga, noruda qazilmalardan soliq va suv solig‘i tushumlari 1,4 baravarga, yer solig‘i 1,7 baravarga o‘sdi.

Birgina, o‘tgan yilgi murojaatlardagi takliflar asosida biznes sub’ektlari mikro, kichik, o‘rta va yirik toifalarga bo‘lindi va ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ishlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2023-yil hisobotiga ko‘ra, tuman va shaharlar 5 ta toifaga ajratilib, 60 ta tumanga alohida soliq, kredit va moliyaviy yordam rejimlari joriy qilindi. Natijada bu tumanlardagi tadbirkorlar o‘tgan yilning dastlabki olti oyida qariyb 1 trillion so‘mlik imtiyozlardan foydalandi. Buning hisobidan 20 ta tumandagi tadbirkorlarning daromadi 2022- yilga nisbatan 1,5-2 barobar oshdi. Boshqacha aytganda, joriy yilning birinchi yarmida 7 trillion so‘mdan 11,5 trillion so‘mga ko‘paygan. 2022-yildagi “ochiq muloqot”da belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali bandligini ta‘minlash orqali 121 ming 731 nafar yoshlarga 2 trln 894 mlrd so‘m kredit ajratildi. Umuman olganda mamlakatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilmog‘da. Natijada o‘tgan bir yilda 55 mingdan ortiq biznes uchun mo‘ljallangan binolar barpo etildi, pul aylanmasini 1 million dollardan oshirgan tadbirkorlar soni 5 mingtaga ko‘payib, 26 mingtani tashkil etdi,

eksport qiluvchi korxonalar soni 7,5 mingga yetib, jami eksport hajmi 30 foizga ko‘paydi.

Kichik biznesni rivojlantirish barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan ekanligi qolaversa, mamlakat iqtisodiyotini “yashil makon” dasturi asosida rivojlantirishning bir bo‘g‘ini sifatida e‘tirof etilib tadbirkorlikni rivojlantirish borasida istiqbolli dasturlar ijrosi bo‘yicha qarorlar chiqarildi. Jumladan, 2023 yil 12 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub‘ektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilindi. Mazkur huquqiy hujjatga asosan, mamlakatimizda “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshiriladi. 2023-2024 yillarda dasturni amalga oshirish uchun jami 1 milliard AQSh dollari miqdorida kredit ajratilishi rejalashtirilgan edi. Bunda dasturga kiritilgan tadbirkorlik sub‘ektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun 2023 yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan tijorat banklariga 100 million AQSh dollari ekvivalentida kredit liniyasi ochilishi ko‘zda tutilgan edi.

Ushbu dasturdan ko‘zda tutilgan maqsad 20 000 tadbirkor tomonidan 500 ming ish o‘rini yaratishdan iborat bo‘lib, unga ko‘ra qatnashchilarga bir qancha imtiyozlar taqdim etilishi belgilandi:

- Barcha soliqlardan (QQS va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) bir yilgacha to‘lov ta‘minotlarisiz, foizlarsiz bo‘lib bo‘lib to‘lash imkoniyati beriladi.

- Agar tadbirkor “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirgan fuqarolarni ishga olsa, har bir shunday ishchi uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (BHMning 2 barobaridan oshmagan miqdorida) tadbirkorga qaytarib beriladi. Shuningdek, ijtimoiy soliqni 50 foizgacha pasaytirilgan stavkada to‘laydi.

Joriy yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investorlarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish, ilm-fan innovatsiya, IT kabi sohalarni rivojlantirish maqsadida joriy 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlandi. Va istiqbolda kichik biznesni, umuman tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish yo‘lida bir qancha islohotlar rejasi hamda, hal etilishi kerak bo‘lgan masalalarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra:

Yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha imkoniyatlarni yaratish maqsadida:

a) oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo‘naltirilsin;

b) 2024 yil 1 iyundan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yosh tadbirkor” tanlovlarini o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin:

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omili sifatida biznes uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish maqsadida “Biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturi” doirasida 2024 yil yakuniga qadar:

-kompleks qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirish orqali 2 million aholini biznesga jalb qilish;

-yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali 5 million aholining bandligini ta‘minlash uchun zarur sharoitlar yaratilsin.

2024 yil 1 iyuldan boshlab nufuzli xalqaro brendlar bilan ishlab chiqarishni boshlayotgan korxonalariga:

-xalqaro standartlarni joriy etish va ekologik sertifikatlash xarajatlarini qoplab berish tartibi joriy qilinsin;

-uch yil davomida nufuzli xalqaro brendlar ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun zarur bo‘lgan barcha xomashyolar mahalliyashtirish darajasini kamida 60 foizga yetkazish sharti bilan bojxona bojidan ozod etilsin;

Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hususidagi ushbu islohotlar, kichik biznesning mahalliy savdo faoliyati orqali mahalliy jamoatning xizmatlari va mahsulotlarini yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lib, turmush darajasini oshirishda muhim o‘rin egallashi bilan barqaror iqtisodiyotga erishish uchun ahamiyatli hisoblanadi. Bu tadbirkorlikning o‘z faoliyati va xizmatlari jamoatga qulaylik va imkoniyatlarni oshirishi, ish o‘rinlarini yaratishi va mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsizlikni ta‘minlash imkoniyatlarini takomillashtirishi bilan bugungi kunning ustuvor yo‘nalishi sifatida qayd etilmoqda. Bu tadbirkorlik shuningdek, mahalliy jamoatni qo‘llab-quvvatlash, uning xizmatlari va mahsulotlari orqali ommaviy xizmatni taqdim etish, va muhim bo‘lgan ish o‘rinlarini yaratish orqali mamlakat iqtisodiyoti uchun muhimdir.

Kichik tadbirkorlikning aholi turmush darajasini oshirishdagi o‘rnini tushuntirish uchun quyidagi nuqtalarni ko‘rsatish mumkin:

1. Mahalliy Bozorlar va Xizmatlar: Kichik tadbirkorlik, mahalliy bozorlarda o‘zlarining mahsulotlarini sotish orqali turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular mahalliy mijozlar bilan yaqin aloqada bo‘lib, ularning ehtiyojlariga mos xizmatlarni taklif etish orqali turmush darajasini oshirishadi.

2. Ish O‘rinlari Yaratish: Kichik tadbirkorlar o‘z faoliyati orqali mahalliy jamoatga ish o‘rinlari yaratish va bular orqali insonlarga ish imkoniyatlari taqdim etish bilan ham shug‘ullanadilar. Bu, turmush darajasini oshirishda ko‘proq insonlarga ish imkoniyatlari yaratish uchun katta ahamiyatga ega.

3. Moliyaviy Qo‘llab-quvvatlash: Kichik tadbirkorlar, o‘zlarining faoliyati orqali mamlakat iqtisodiyoti va moliyaviy daromadini oshirishda muhim rol o‘ynaydilar. Ular sotiladigan mahsulotlar va xizmatlar orqali mamlakat iqtisodiyotining qalinliklariga



qarshi turgan va yangi daromad manbalari yaratish orqali turmush darajasini oshirishadi.

4. Innovatsiyalar va Texnologiyalar: Kichik tadbirkorlar, yangiliklarga va texnologiyalarga e'tibor qaratish orqali o'zlarining faoliyatini yanada rivojlantirishadi. Bu, turmush darajasini oshirishga imkoniyat yaratishda muhimdir, chunki yangiliklar va texnologiyalar faoliyatni sifatliroq qiladi va ommaviy xizmatni yaxshilaydi.

5. Sodda Turmush Darajasi va Ijtimoiy Maslahatlashuv: Kichik tadbirkorlar o'z faoliyati orqali mahalliy jamoatni qo'llab-quvvatlash, ularning ehtiyojlariga javob berish va ijtimoiy maslahatlashuvda qatnashish orqali sodda turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydilar.

Xulosa qilib aytganda kichik biznes tarmoqlarining kengayishi mamalatning barqaror suratda rivojlanishi, aholi turmush darajasining yaxshilanishi, ishsizlik muammolarining yumshatilishi, yoshlarning o'z-o'zini band qilishini moliyaviy rag'batlantirish, inson kapitalining roli mamalakat rivojida har qachongidanda muhim omil ekanligini ko'rsatish hamda, davlatning iqtisodiy ahvolini yaxshilash kabi masalalarning yechimlaridan biri sifatida e'tirof etilishi bilan ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi Zarafshon 2017 yil 23 dekabr, 157-son.

2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2017.

3. Pirnazarovna, U. Y. (2024). LABOR RESOURCES-INVALUABLE ASSETS. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 443-446.

4. Pirnazarovna, U. Y. (2024). THE THEORETICAL FRAMEWORK FOR MUSEUM TOURISM DEVELOPMENT. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 355-358.

5. Pirnazarovna, U. Y. (2024). THE IMPACT OF MUSEUM TOURISM ON ENHANCING QUALITY OF LIFE. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 4(2), 359-363.

6. Pirnazarovna, U. Y. (2023). Service Provision and Standard of Living of the Population; Interdependence. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777)*, 1(10), 25-27.

7. Pirnazarovna, U. Y., & Ismatjonovna, U. M. (2023). SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF THE SERVICE SECTOR. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(6), 1-6.

8. Pirnazarovna, U. Y. (2023). THE ROLE OF THE SERVICE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF THE COUNTRY. *American Journal of Business Management, Economics and Banking*, 12, 20-25.

9. Pirnazarovna, U. Y. (2023). Factors Affecting the Level of Population. *Miasto Przyszłości*, 34, 180-186.

10. Pirnazarovna, U. Y., & Bakhodirovich, E. D. (2022). THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND THE SERVICE SECTOR. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 705-709.

11. Pirnazarovna, U. Y. (2020). The role of tourism in shaping the quality and standard of living of the population. *Academy*, (2 (53)), 13-15.

12. Pirnazarovna, U. Y. (2019). The development of service sector is an important factor in creating new jobs and ensuring employment. *Academy*, (12 (51)), 32-38.

13. Pirnazarovna, U. Y., & O'G'Li, A. S. H. (2019). The role of tourism services on raising the living standards of the population. *Вопросы науки и образования*, (18 (65)), 27-30.

14. Urumbaeva, Y. P., & Raximberdiyev, T. (2023). COMPREHENSIVE ANALYSIS OF POPULATION INCOME LEVELS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(11), 8-14.

15. Urinboeva, Y. P., Khasanovna, D. D., & Shodmonovna, S. C. (2021). THEORETICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF LIVING STANDARDS AND SERVICES OF THE POPULATION. *International journal of trends in commerce and economics*, 11(1).

16. Urunbayeva, Y. P. (2019). THE ROLE OF THE SERVICE INDUSTRY IN THE FORMATION OF POSTINDUSTRIAL SOCIETY. In *Colloquium-journal* (No. 26-8, pp. 11-15). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.

17. Umirzakova, M. I., & Baratova, M. I. (2021). THE ESSENCE OF THE SERVICE SECTOR AND THE SOCIO-ECONOMIC SIGNIFICANCE OF RAPID DEVELOPMENT TODAY. *Экономика и социум*, (11-1 (90)), 591-597.

18. Урунбаева, Ю. П. (2023). АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ОШИРИШДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

19. Урунбаева, Ю. П., Ҳимматова, Б. Б., & Уралов, Ш. А. (2019). АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 472-475).

20. Урунбаева, Ю. П., Нуруллаева, Ш. И. К., Давлатова, Н. Б. К., Истамов, Ш. А. У., & Очилова, Ю. Т. К. (2019). Роль услуг в развитии инновационной экономики. *Достижения науки и образования*, (7 (48)), 15-17.

21. Урунбаева, Ю. (2016). Роль сферы услуг в социально-экономическом развитии страны. *Экономика и инновационные технологии*, (4), 38-46.

22. Урунбаева, Ю. П. (2013). Хизмат курсатиш соҳдси ва аҳоли турмуш даражаси: узаро боғлиқлиги ва ривожланиш истикболлари. *Монография. Тошкент: «ФАН*, 156.

23. Урунбаева, Ю. П. (2020). НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЕ. In *Российская экономика: взгляд в будущее* (pp. 180-185).
24. Урунбаева, Ю. (2016). Возможности увеличения свободного времени населения на основе развития сферы услуг. *Экономика и инновационные технологии*, (5), 88-93.
25. Урунбаева, Ю. П. (2016). Перспективы повышения уровня жизни населения на основе развития малого и частного бизнеса. *Научный альманах*, (11-1), 321-326.
26. Урунбаева, Ю. П. (2016). Уровня жизни населения это социально-экономическая природа. In *НАУКА СЕГОДНЯ: ФАКТЫ, ТЕНДЕНЦИИ, ПРОГНОЗЫ* (pp. 58-60).
27. Урунбаева, Ю. П. (2016). СФЕРЫ УСЛУГ И УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. In *НАУКА СЕГОДНЯ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 97-99).
28. Уралов, Ш. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). Теоретико-методологические проблемы развития сферы услуг. In *ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ГОДА 2020* (pp. 116-123).
29. Уралов, Ш. А., Нурматова, С. А., & Урунбаева, Ю. П. (2020). ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ, ОСНОВАННОЙ НА РЫНОЧНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. In *СТУДЕНТ ГОДА 2020* (pp. 105-112).
30. Урунбаева, Ю. П. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ–ТАРАҚҚИЎТИНИНГ БОШ ОМИЛИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(3), 57-60.
31. Урунбаева, Ю. П. (2024). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ–АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛИ. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 19(1), 166-171.
32. Урунбаева, Ю. П. (2024). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Ustozlar uchun*, 56(1), 186-190.
33. Урунбаева, Ю. (2024). МЕҲНАТ РЕСУРСЛАРИ–МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЎТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИДИР. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 644-649.
34. Урунбаева, Ю. П. (2023). РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ СТРАНЫ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 105-108.
35. ТЎРАЕВ, Ш., РЕЖАПОВ, Х., МАХМУДОВ, Ж., МАДИЕВА, З., ЭЛБАЕВА, М., КАМАЛОВА, М., ... & ЖУМАЕВА, М. *Biznes-Эксперт*.
36. Xurshid Qo'ldosh o'g, A. (2023). NIMA UCHUN TALABA KITOV O'QIMAY QO'YDI?. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 35(3), 93-96.
37. Xurshid, A. (2024). XXI ASRDA EKOLOGIK MUAMMOLAR. *World scientific research journal*, 26(1), 45-50.